

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 5 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 5

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 5



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№5 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-5>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sul'tonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1	Svetlana Safarova Satimovna. XORAZM VOHASINING QUYI VOLGA VA JANUBIY SIBIR HUDUDLARI BILAN MADANIY ALOQALARINING TARIXIY MANBALARDA VA TADQIQOTLARDA AKS ETISHI.....	7
2	Yaqubova Shahribonu Davron qizi. HUQUQIY HUIJATLAR TARJIMASIDA ANIQLIK MASALASI.....	13
3	Matyakubov Hakimboy Xamidjonovich. OLAMNING ONOMASTIK MANZARASINI TADQIQ ETISHDA MAKON NOMLARINING STRATIGRAFIK (QATLAMLANISH) TABIATINI ANGLASH.....	15
4	Jabborova Dilnavoz Allaberganovna. MUNIS IJODIDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....	19
5	Ёриева Зарифа Хамраевна. ЖОН СТЕЙНБЕК ВА УЛУҒБЕК ҲАМДАМ НАСРИДА ЗАМОН-МАКОН МОДЕЛИ ВА ШАХС РУҲИЯТИНИНГ КЕНГҚАМРОВЛИ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ.....	23
6	Narziyeva Inobat Zoirovna. O'ZBEK ADABIYOTIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALAR OBRAZINING PSIXOLOGIK TALQINI.....	27
7	Karimova Shaxnoza Karimovna. Atoyeva Zarinabonu Yigitali qizi. MODERNISTIK SHE'RIYATDA ANAFORANING BADIY VAZIFALARI.....	31
8	Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна. ЯДЕРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ИДИОСТИЛЯ: КОРПУСНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭТИКИ БАЛЬМОНТА И БРЮСОБА.....	36
9	Шамсутдинова Галия Шамилевна. КЛАССИФИКАЦИЯ НАЗВАНИЙ ЖИЛИЩ В ХОРЕЗМЕ.....	42
10	Yakubova Matluba Tajibayevna. NEMIS - O'ZBEK MAQOLLARINING TARJIMA MUAMMOLARI VA EKVIVALENTLIK MASALASI.....	46

TARIX

1	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON SIYOSIY PARTIYALARINING GENEALOGIYASI VA SIYOSIY-G'OYAVIY ASOSLARI".....	51
2	Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li XIVA XONLIGI QOZILIK HUIJATLARIDA YER OLDI-SOTDISI VA VAQF IJARA MUNOSABATLARINING HUQUQIY RASMIYLASHTIRILISHI.....	55
3	Atayeva Dilfuza Pulatovna. O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI ORQALI XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISH.....	57
4	Babadjanov B. "O'ZBEKISTON "MILLIY TIKLANISH" DEMOKRATIK PARTIYASINING SIYOSIY STRATEGIYASI".....	61
5	Yusupov Axmedjon Shonazarovich. OROLBO'YI ILK SAK QABILALARINING ETNO-MADANIY GENEZISI YUZASIDAN BA'ZI MULOHAZALAR.....	65
6	Otaxonova Intizor Norimboy qizi. URGANCH DAVLAT UNIVERSITETIDA XALQARO HAMKORLIK ALOQALARINING RIVOJLANISHI.....	71
7	Nurmetov Ismoil Alimbayevich. O'ZBEKISTONDA TABIIY HUDUDLAR MUHOFAZASI.....	75
8	Садиков. А. И. ҚОРАҚАЛПОҚ ХУДУДЛАРИДА АНЪАНАВИЙ МАКТАБ ВА МАДРАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	82
9	Саидов Шавкат Жумабаевич. ХХСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....	88
10	Ermanov Alisher Bekmuratovich. TOTALITAR TUZUM DAVRIDA QORAQALPOQ OXUNLARI FAOLIYATI.....	94

PEDAGOGIKA

- 1 **Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna.** PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI..... 97
- 2 **Radjapova Feruza Abdullayevna.** ADAPTIV SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK TASNIFI..... 101
- 3 **Egamova Anbarjon Atanazarovna.** KONSTRUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSIYA VA EMOTSIONAL-INTELLEKTUAL OMILLARNING O'RNI..... 106
- 4 **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li.** AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI (XORIJIIY UNIVERSITETLAR TAJRIBASI MISOLIDA).... 111
- 5 **Atajanov Adilbek Yuldashevich.** OTM PEDAGOG XODIMLARINING ISH O'RNIDAGI FUNKSIONAL TAYYORGARLIGINI OPTIMALLASHTIRISHDA WFSIP PEDAGOGIK MODELINING NAZORATLI SINOV NATIJALARI..... 117
- 6 **Kurbonboyev Xudoyshukur Maqsudboy o'g'li.** OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI KROSSFIT MASHG'ULOTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI: DOLZARBLIK, O'RGANILGANLIK DARAJASI VA PEDAGOGIK YECHIMLAR..... 125


PSIXOLOGIYA

- 1 **Kalandarova Madina Baxadirovna.** TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDA AYOLLARNING ONALIKKA MOSLASHUVIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR..... 133
- 2 **Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'g'li.** ZAMONAVIY TALABALAR HAYOTIY STRATEGIYALARI VA COPING-XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK..... 138

IQTISOD

- 1 **Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna. Raximov G'anisher Alisher o'g'li.** SOLIQQA SOLISH TIZIMLARINING XALQARO TASNIFI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... 143
- 2 **Maxmudov Jasurbek Ergashevich.** INVESTITSION SALOHIYAT TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI..... 147
- 3 **Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi. Zakirova Gulnoza Qudratovna.** O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLAR BANDLIGI: STRUKTURAVIY NOMUTANOSIBLIKLAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI..... 153
- 4 **Zaripov Xurshid Zakir o'g'li. Ruzmetova Gulira'no Atabekovna.** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA MUAMMOLARI..... 157
- 5 **O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich. Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich. Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich.** O'ZBEKISTONDA RAQAMLI FISKAL BOSHQARUV: DAVLAT BUDJETI SHAFFOFLIGI VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI..... 163
- 6 **Pardayeva Ozoda Mamayunusovna.** TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR..... 168

UDK: 821.512.133.09

Jabborova Dilnavoz Allaberganovna
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistranti**MUNIS IJODIDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20707400>

Annotatsiya. Maqolada Shermuhammad Munis Xorazmiy ijodida mumtoz adabiy an'ana va badiiy novatorlikning o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shoirning Navoiy maktabi, aruz, devon tuzish va ishqiy-irfoniy obrazlarga tayanishi an'anaviylik belgisi sifatida, "Savodi ta'lim", "Firdavs ul-iqbol", tarjima va xattotlik faoliyatidagi ma'rifiy-amaliy yo'nalish esa novatorlik ko'rinishi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Munis yangiligi an'anadan voz kechish emas, balki uni Xorazm adabiy muhiti ehtiyojlariga mos holda boyitish ekani asoslanadi.

Kalit so'zlar: Munis Xorazmiy, an'anaviylik, novatorlik, g'azal, Navoiy an'anasi, "Savodi ta'lim", Xorazm adabiy muhiti.

Аннотация. В статье рассматривается соотношение традиции и новаторства в наследии Шермухаммада Муниса Хорезми. Традиционность проявляется в связи с поэтической школой Навои, арузом и диванной поэтикой; новаторство — в просветительском содержании, историческом мышлении, педагогической направленности "Саводи таълим" и переводческо-каллиграфической деятельности автора.

Ключевые слова: Мунис Хорезми, традиция, новаторство, газель, Навои, "Саводи таълим", Хорезм.

Abstract. The article analyzes the balance of literary tradition and innovation in the works of Shermuhammad Munis Khorezmi. Traditional elements are seen in his reliance on Navoi's school, aruz and divan poetics, while innovation appears in his educational, historical, translational and calligraphic activity. The study argues that Munis renewed tradition according to the cultural needs of Khorezm.

Keywords: Munis Khorezmi, tradition, innovation, ghazal, Navoi, "Savodi ta'lim", Khorezm.

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida an'anaviylik va novatorlik bir-birini inkor etuvchi emas, balki ijodiy davomiylikni ta'minlovchi ikki muhim tamoyildir. An'ana shoirga tayyor poetik maktab, obrazlar tizimi, janr va vazn me'yorlarini beradi; novatorlik esa ana shu meros ichida yangi mazmun, yangi vazifa va individual ifodani yuzaga chiqaradi. Shermuhammad Munis Xorazmiy ijodi bu jarayonning yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda Navoiydan keyingi mumtoz poetika Xorazm adabiy-madaniy muhiti ehtiyojlari bilan uzviy bog'lanadi.

Munis adabiyot tarixida shoir, tarixnavis, tarjimon, xattot va ma'rifatparvar sifatida tanilgan. Uning "Munis ul-ushshoq" devoni, "Savodi ta'lim" risolasi, "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asari,

Mirxond “Ravzat us-safo” asari tarjimasida ustidagi faoliyati hamda kitobat madaniyatiga doir xizmatlari ijodkor shaxsiyatining ko‘p qirraliligini ko‘rsatadi [1; 2; 8]. Shu bois Munis merosini faqat g‘azaliyot bilan cheklamasdan, lirik, didaktik, tarixiy va tarjimaviy faoliyat birligida o‘rganish ilmiy jihatdan muhimdir.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Munis ijodini tadqiq etishda Yu. Yusupov tayyorlagan nashrlar, N. Jumayevning “Munis g‘azaliyoti” tadqiqoti, N. Jumaxo‘jayevning “Savodi ta‘lim”ga doir ishlari hamda “O‘zbek adabiyoti tarixi”dagi ma‘lumotlar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [1; 3; 4; 5]. Keyingi maqolalarda Munisning Navoiy an‘anasi bilan aloqasi, husnixat va savod masalasiga munosabati, qo‘lyozma merosi kabi jihatlar alohida yoritilgan [6; 7].

Maqolada tarixiy-qiyosiy, poetik tahlil, tipologik va germeneytik yondashuvlardan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy usul Munis ijodini Navoiy maktabi va Xorazm adabiy muhiti bilan bog‘lab talqin qilishga, poetik tahlil esa shoir asarlaridagi obraz, janr, vazn, didaktik mazmun va uslubiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Munis ijodidagi an‘anaviylik, avvalo, devonchilik madaniyati, aruz vazni, g‘azal janri va ishqiy-irfoniy obrazlar tizimida namoyon bo‘ladi. Mumtoz she‘riyatda yor, oshiq, raqib, hijron, vasl, may, soqiy kabi obrazlar badiiy tafakkurning barqaror belgilaridir. Munis ham ushbu obrazlardan keng foydalanadi, ammo ularni oddiy takror darajasida emas, balki shaxsiy ruhiy kechinma va axloqiy xulosa bilan boyitadi. Bu jihat shoirning an‘anaga ijodiy munosabatini ko‘rsatadi.

Navoiy maktabi Munis uchun asosiy estetik mezonlardan biridir. Shoirning Navoiy asarlarini kitobat qilgani, aruz va matn madaniyatiga e‘tibor bergani, “Mezon ul-avzon” nusxalari bilan aloqadorligi haqidagi ma‘lumotlar uning mumtoz merosni chuqur anglaganini bildiradi [8]. Biroq Munis Navoiy an‘anasini tayyor qolip sifatida ko‘chirmaydi; u insonparvarlik, ilm, vafodorlik, adolat va komillik g‘oyalarini Xorazm muhiti sharoitida davom ettiradi.

Munis g‘azallarida radif va qofiyaning vazifasi ham an‘anaviy shakl bilan individual ifodaning qo‘shilishiga xizmat qiladi. Shoir ko‘p hollarda an‘anaviy obrazni saqlagan holda unga hayotiy kuzatuv, ruhiy iztirob yoki nasihat ohangini qo‘shadi. Natijada bayt ichidagi tasvir faqat badiiy bezak bo‘lib qolmay, muallifning ma‘naviy qarashi va davr haqidagi mulohazasini ham ifodalaydi. Ayniqsa, ilm-ma‘rifat, do‘stlik, vafodorlik va zamon beqarorligi haqidagi fikrlar lirik kechinma bilan tabiiy uyg‘unlashadi.

An‘anaga bunday munosabat Munisni ijodiy davomchi sifatida ko‘rsatadi. U mumtoz she‘riyatdagi tayyor ramzlarni o‘z davri kishisining ruhiy va axloqiy ehtiyojlari bilan bog‘laydi. Shuning uchun uning lirikasida oshiq obrazi faqat ishq iztirobini ifodalovchi qahramon emas, balki ilmga, kitobga, poklikka va insoniylikka intiluvchi ma‘naviy shaxs sifatida ham talqin qilinadi. Bu hol shoir ijodidagi novatorlikning ichki, mazmuniy qirrasidir.

Shoir g‘azallaridagi novatorlik lirik qahramonning fikriy faolligida seziladi. Mumtoz g‘azalda oshiq ko‘pincha ramziy-majoziy qiyofada tasvirlansa, Munisda u davr muhitini kuzatuvchi, do‘stlik va nodonlik, ilm va jaholat, vafodorlik va manfaatparastlik haqida xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, an‘anaviy ishqiy-irfoniy ohang Munisda ma‘rifiy-axloqiy pozitsiya bilan uyg‘unlashadi.

Shoir uslubida til masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Munis mumtoz badiiy tilning nozik tashbeh, istiora va mubolag‘alaridan foydalanadi, biroq ayrim o‘rinlarda fikrni sodda, aniq va hikmatga yaqin shaklda ifodalaydi. Bu xususiyat uning she‘rlarini faqat saroy yoki xos adabiy doira uchun emas, balki kengroq ma‘rifiy muhit uchun ham tushunarli qiladi. Tilning bunday harakatchanligi an‘anaviy poetikani hayotiy kuzatuv bilan yaqinlashtiradi.

Munis novatorligining muhim ko‘rinishi “Savodi ta‘lim” risolasidir. Ilmni ulug‘lash Sharq adabiyotida qadimiy an‘ana bo‘lsa-da, Munis bu g‘oyani amaliy savod, husnixat va ta‘lim jarayoniga bog‘laydi [4; 7]. Asarning she‘riy shaklda yozilishi ham didaktik maqsadga xizmat qiladi: ritm, qofiya va obrazli ifoda o‘quvchining eslab qolish imkoniyatini kuchaytiradi. Shu tariqa shoir adabiy so‘zni amaliy pedagogik vazifa bilan birlashtiradi.

“Savodi ta’lim”ning ahamiyati shundaki, unda savod chiqarish oddiy texnik malaka emas, balki axloqiy tarbiya, tartib-intizom va go’zallikni anglash bilan bog’liq jarayon sifatida qaraladi. Husnixatga e’tibor matnni hurmat qilish, bilimni puxta egallash va kitob madaniyatini shakllantirish vositasiga aylanadi. Bu yondashuv Munisni ma’rifatparvar ijodkor sifatida tavsiflash imkonini beradi, chunki u badiiy so’zning ijtimoiy foydasini kuchaytiradi.

“Firdavs ul-iqbol” Munis ijodida tarixiy tafakkurning yangilanishini ko’rsatadi. Asar Xorazm tarixini yoritishga qaratilgan bo’lib, unda tarixiy voqea, genealogik tartib, ijtimoiy kuzatuv va badiiy bayon uyg’unlashadi [2; 8]. Mumtoz tarixnavislik an’anasi bu yerda mahalliy tarixiy xotirani saqlash, Xiva xonligi madaniy muhitini tasvirlash va avlodlar uchun tarixiy manba yaratish vazifasiga xizmat qiladi.

Mazkur asarda muallif tarixni faqat voqealar ketma-ketligi tarzida bermaydi; u tarixiy jarayonning ma’naviy saboqlarini ham ko’rsatishga intiladi. Hukmdorlar faoliyati, siyosiy munosabatlar, ilm ahli va ijodkorlar haqidagi ma’lumotlar xalq xotirasini mustahkamlovchi omilga aylanadi. Shu jihatdan Munis tarixiy nasrni adabiy-estetik va ma’rifiy vazifa bilan boyitadi. Bu esa uning ijodida tarix, adabiyot va tarbiya bir-biridan ajralmaganini ko’rsatadi.

Tarjima va xattotlik faoliyati ham Munisning yangilikka intilganini ko’rsatadi. “Ravzat us-safo” tarjimasi orqali u tarixiy-ilmiy bilimlarni turkiy o’quvchiga yaqinlashtirishga harakat qiladi. Xattotlikda esa matnni to’g’ri ko’chirish, imlo, aruz va manba mas’uliyatiga e’tibor beradi. Natijada Munis ijodkor qiyofasida shoirlik, tarixnavislik, tarjimonlik va matnshunoslik birlashadi.

Xorazm adabiy muhitining o’ziga xosligi ham Munis novatorligini tushinishda muhimdir. Bu muhitda ijodkor ko’pincha bir vaqtning o’zida shoir, tarixchi, kotib, tarjimon va ustoz vazifasini bajargan. Munis ana shu ko’p qirrali modelni yuksak darajaga ko’tardi. Uning faoliyati keyingi Ogahiy, Bayoniy kabi ijodkorlar uchun namunaviy yo’nalish yaratdi. Demak, Munis yangiligi faqat alohida asarlarda emas, balki butun adabiy maktabning vazifalarini kengaytirganida ham ko’rinadi.

Tahlil natijalariga ko’ra, Munis ijodidagi an’anaviylik mumtoz janr va poetik me’yorlarga tayanishda, novatorlik esa shu shakllarni ma’rifat, tarixiy xotira, savod va matn madaniyati bilan boyitishda ko’rinadi. U Navoiy an’anasini davom ettirgan holda Xorazm adabiy maktabining keyingi taraqqiyoti, xususan Ogahiy va Bayoniy ijodi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Shu bois Munis merosini baholashda “an’ana” va “yangilik” tushunchalarini qarama-qarshi qo’yish to’g’ri emas. Shoirning ijodiy tajribasi shuni ko’rsatadiki, mumtoz adabiyotda yangilik ko’pincha shaklni buzish orqali emas, balki shu shakl ichida yangi fikr, yangi ijtimoiy vazifa va yangi ma’naviy ehtiyojni ifodalash orqali yuzaga keladi. Munis ijodi ana shu jarayonning ilmiy jihatdan muhim namunasi hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, Munis ijodidagi novatorlik faqat alohida mavzu yoki janrlar bilan emas, balki ijodkorning umumiy madaniy missiyasi bilan bog’liq holda talqin qilindi. Shoir lirikada axloqiy-ma’rifiy qarashlarni kuchaytirgan bo’lsa, didaktik asarda ta’lim amaliyotini, tarixiy nasrda esa milliy xotirani badiiy so’z bilan mustahkamladi. Bu uch yo’nalish birgalikda Munis ijodining yaxlit konsepsiyasini tashkil etadi.

Maqolaning amaliy ahamiyati Munis merosini oliy ta’limda o’zbek mumtoz adabiyoti, Xorazm adabiy muhiti, Navoiy an’anasi va ma’rifatparvarlik mavzularini o’qitishda qo’shimcha material sifatida qo’llash mumkinligidadir. An’anaviylik va novatorlik munosabati orqali talaba mumtoz matnni faqat tarixiy yodgorlik emas, balki yangilanishga ochiq ijodiy tizim sifatida angelaydi.

XULOSA

Shermuhammad Munis Xorazmiy ijodida an’anaviylik va novatorlik uzviy birlikda namoyon bo’ladi. U g’azal, aruz, devon tartibi, ishqiy-irfoniy obrazlar va tarixnavislik an’analariga tayandi. Shu bilan birga, mazkur an’analarni o’z davrining ma’rifiy, tarixiy va pedagogik ehtiyojlari bilan bog’lab, ularga yangi mazmun berdi.

Munisning yangiligi an’anani inkor etish emas, balki uni faol ijodiy qayta talqin qilishdir. “Savodi ta’lim”da savod va husnixat masalasi badiiy-didaktik shaklda, “Firdavs ul-iqbol”da esa tarixiy xotira adabiy bayon orqali yoritildi. Tarjima va xattotlik faoliyati esa uning turkiy adabiy-

ilmiy muhitni boyitishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Shunday qilib, Munis o'zbek mumtoz adabiyotida Xorazm maktabining an'anani yangilagan yirik vakili sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Munis Shermuhammad. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi Yu. Yusupov. — Toshkent: O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957. — 384 b.
2. Munis Xorazmiy. Saylanma / Nashrga tayyorlovchi Yu. Yusupov. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. — 366 b.
3. Jumayev N. Munis g'azaliyoti. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. — 159 b.
4. Jumaxo'jayev N. Savodi ta'lim. — Toshkent: O'qituvchi, 1997.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. — Toshkent: Fan, 1978.
6. Sapaev G. Munis Xorazmiy dunyoqarashida Navoiy ijodining o'rni // CyberLeninka. — 2021. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/munis-xorazmiy-dunyoqarashida-navoiy-ijodining-o-rni> (murojaat sanasi: 28.05.2026).

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].